

## SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA AN’ANAVIYLIK

**Hamidova Muhayyoxon Obidovna**  
filologiya fanlari nomzodi, professor,  
Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning ijodida an’anaviylik xususida so‘z boradi. Shukur Xolmirzayev adabiyotimiz olamiga shahdam odimlar bilan kirib kelgan yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi. Har qanday adabiy asar tahlili haqida gap borar ekan, adabiyotdan tashqari o’sha adabiyotni yaratgan yozuvchi shaxsini ham e’tibordan soqit qilmasdan o‘rganishga chorlaydi. Uning har bir asari o‘ziga xos ahamiyati bilan ajralib turadi.

**Kalit so‘zlar:** romannavis, dramaturg, qissanavis, publisist, adabiyotshunos, qadimshunos, xarakter, an’anaviylik, qahramon, obraz, real hayat, asar g‘oyasi, janr, shaxs, nasr, qahramonlar xarakteri.

Milliy adabiyotimizning haqiqiy fidoyisi bo‘lmish taniqli adib O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev adabiyotimizda o‘ziga xos maktab yaratdi. O‘zbek nasrchilagini yangi pog‘onaga ko‘targan mohir yozuvchini kitobxonlar romannavis, dramaturg, qissanavis, publisist, adabiyotshunos, qadimshunos sifatida ham yaxshi bilishadi. Bu xususda adibning o‘zi suhbatlardan birida bejizga “Adabiyotni ehtiyoj amri, qismatim deb bilaman. Men shunday hayatning xumori bo‘lib qolganman”[4, 4], demagan.

Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor ijodida namoyon bo‘lgan XX asr o‘zbek hikoyachiligi an’analarini Shukur Xolmirzayev shu asrning so‘nggi choragida yanada boyitdi. O‘zbek hikoyachilagini yangi bosqichga ko‘targan uning qator asarlari bu janrning keng miqyosdagi manaman degan namunalari bilan haqli ravishda bo‘ylasha oladi. Adib hikoyalarida siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo‘ylik, shablon iboralarni deyarli uchratmaymiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. Asarning kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o‘tkazishdan cho‘chimaydi va ko‘pincha, muvaffaqiyatlarga erishadi. O‘zbek kishisi orzu-armonlarining, aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarini qalamga oladi. Bu qahramonlar o‘zga yozuvchilarning qahramonlariga o‘xshamagan: goh do‘lvor, goh to‘pori, goh dag‘al va chapani, goh kichkinagina bir muhit vakili. Lekin barchasining ichki dunyosi o‘ziga xos, ruhan teran, insonparvar, e’tiqoddan qaytmaydigan, shularga munosib ravishda mulohaza yuritadigan jonli va hayotiy kishilardir. Bu qahramonlar o‘zligini, millatini, yurt tuprog‘i-yu udumini, dini va diyonatini har narsadan ustun qo‘yadilar. Adolat uchun, haqiqat uchun kurashadilar. Lekin biror qahramon bu maqsadda hech qachon balandparvozlik qilmaydi, ayyuhannos solmaydi. Ular tashqaridan emas, ko‘pincha, ichdan jozibali, istarali, mehrtortar bo‘ladi. Shukur Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi”, “Tabassum”, “O‘zbeklar”, “Qadimda bo‘lgan ekan”, “Quyoshku falakda kezib yuribdi”, “Ko‘k

dengiz”, “Navro‘z, navro‘z”, “Xumor” singari hikoyalari so‘nggi bosqich o‘zbek adabiyotining bu janrdagi ibratli namunalaridir.

Адибнинг “Tabassum” [3, 3-11] хикоясиغا nazar tashlaylik. Jalil ota sho‘ro tuzumi uchun astoydil xizmat qilgan, urush qatnashchisi. Keksayganda dardga chalinib, yotib qolar ekan hayoti birma-bir ko‘z oldidan o‘tadi. Yigitligida, qizillarning faol jangchisi ekanida Quyun qo‘rboshini bandi etdi. Uning bu yo‘lga din uchun, xalq uchun kirganman, degan so‘zлari hamon qulog‘i ostida. Shunga qaramay, essiz, unga o‘limni ravo ko‘rganlar qatorida turdi-ya. Hayot bilan vidolashuv onlari yaqinlashganda Jalil otaning nabirasiga bir vaqtlar qizillarga fidoyi qizmat qilgan, qo‘rboshi boshiga yetganlarning faoli, qo‘sh-qo‘sh nishonlar olgan Mo‘min cholning nabirasidansovchi keladi. Jalil ota bu nishonlar egasining qanday fe’l-atvori-yu sadoqati evaziga kelganini yaxshi bilardi. Shu bois, qalbida chuqur iztirob: u xonadonga nabirasini bergisi yo‘q. Lekin iloji qancha. Hatto olimim bu toyni qoldirishi mumkin edi, degan xayollarga boradi. Qazosi yetganda esa uning yuzida qotib qolgan tabassumni ko‘ramiz. Bu nima? Jalil otaning o‘z hayotidagi ayrim holatlar, xususan, Quyun qo‘rboshiga o‘xshaganlarning umriga zomin bo‘lgani uchun afsusimi? Mo‘min cholga o‘xshaganlarning ko‘ksini soxta aldoq nishonlar bilan to‘ldirgan jamiyat ustidan kulib ketdimikin, balki? Ehtimol, o‘zi istamagan “o‘sha” noma’lum to‘yni loaqla o‘limi bilan qoldirib ketayotganidan shukronalik belgisidir. Xulosa chiqarishni yozuvchi kitobxonning o‘ziga qoldiradi. Nima bo‘lganda ham, Jalil otaning umr shomida din uchun, xalq uchun jonini bergen Quyun qo‘rboshiga xayrixohligi o‘z ifodasini topgan Shukur Xolmirzayevning qarashlari, nuqtayi nazari zamirida uning millatparvar sifatidagi o‘ziga xos qiyofasi yotadi deyish mumkin.

“Xumor” hikoyasini adib jiddiy muammolar talqiniga bag‘ishlagan. U so‘nggi bosqich o‘zbek hikoyachiligidagi kinoya, alamzada quvnoqlik usuli qo‘llangan holda yaratilgan asarlardan biridir. Hikoya “Ko‘k dengiz” singari nainki o‘zbek, balki ulkan miqyoslardagi XX asrning bu janrning namunalarini qatoridan o‘rin olishga haqlidir. Asarda bir millat, bir mamlakatning ma’lum bir bosqichidagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o‘z xarakterini o‘zi ochish yo‘sinda yoritiladi. Qahramonning yuzi zahil, rangi panoh. Lekin qiyofamni korib, hayron bolmang, qo‘rqmang, kasalim yuqumli emas deydi u, kitobxon bilan yuzma-yuz muloqotga kirishib. Aybi bor odamdek, kechirim sorayotgandek, u fikrida davom etadi: paxtaga sepilgan dorilar ta’sir qilgan, xolos. Hikoya davomida biz qahramonning farzandi yoqligini, dalani kormasa xumori tutishini, o‘rmalab bo‘lsa ham dalaga chiqib turishini bilib olamiz. U xastahol bo‘lsa ham, fikrini quvnoq ohangda bayon qiladiki, san’atkor yozuvchi tomonidan tanlangan mazkur kinoya usuli asar va qahramonning kitobxonga ta’sirini yanada kuchaytiradi. Qahramon kitobxonning “Dalaga o‘rmalab bo‘lsa ham chiqishingdan maqsad nima?” degan savolini qabul qilgandek bo‘ladi-da, o‘zining (ayni vaqtida millatning) shu vaziyatdagi holatini ochishga yo‘naltirilgan ushbu javobini beradi: “Maqsad – ham xumorni qondirish, ham hissa qo‘shish, Labbay?...Siz bir narsani tushunmayapsiz: u dori mening tarjimayi holimga singib ketgan, axir! Tushunyapsizmi? Mening butun quvonchlarim, zavqlarim, hayotimning manosi, vatan oldidagi burch, ilk muhabbatim ham o‘sha bilan bog‘liq” [3, 53]. Asar uning qahramoni, paxta yakkahokimligi va u tufayli o‘zbek xalqi boshiga tushgan zugum,

genotsid, jabr, noilojlik qismati haqida nihoyatda muxtasar, lekin badiiy o'tkir va ta'sirchanligi bilan qimmatlidir.

Qissa, roman, drama va ondan ortiq esse yozganiga qaramay, Shukur Xolmirzayev, asosan, hikoyanavis sifatida tanildi, e'tibor qozondi. O'zining ta'kidlashicha, adib dunyo hikoyachiligin chuqur o'rgangan. U jahon hikoyanavislari orasida to'rtta yozuvchini "klassik" deb e'tirof etadi: "rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o'zbek adabiyotda Abdulla Qahhor". Bu adiblar ijodidagi o'ziga xos jihatlar Shukur Xolmirzayevni rom etgan edi. Jumladan, Anton Chexov hikoyalaridagi "fe'l-u atvorli tirik odam qanday aks etishi", "obrazning takomili", "Jek London asarlaridagi muallifning lozim topgan o'rnlarda o'z qahramoniga munosabatini ochiq-oydin ifodalashi, Tagor hikoyalaridagi "umuminsonlar uchun ham kerakli bir ma'no" yozuvchini mutaassir etgan. Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Shukur Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarda rang-barang badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan. Adib o'zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissa-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib o'rin egallaydi.

Sh.Xolmirzaevning o'zi e'tirof etishicha maktabda o'qib yurgan chog'lardayoq unda adabiyotga havas uyg'ondi. Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida bu havas yanada ortadi. Xuddi shu yillari Sh.Xolmirzayev badiiy ijod sohasida dastlabki qadamlarini qo'yadi. Uning dadil ijod yo'liga kirishida fakultetdagi tanqidchi Matyoqub Qo'shjonov boshchilik qilgan adabiy to'garak katta makkab vazifasini o'taydi. Universtitetda Shukur Xolmirzaev jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishib, badiiy ijod sirlarini anglay boshlaydi.

Yozuvchi ijodida mavzular olami shu qadar keng va rang-barangki, ularning har biri alohida tadqiq va tahlilga loyiq. Shulardan biri tabiat va inson mavzui muammasidir. Chunki Sh.Xolmirzayev o'z asarlarida ona tabiat mavzuiga alohida e'tibor beradi va unda ko'proq o'zi tug'ilib o'sgan Surxon koloritini mohirona tasvirlab beradi.

Ma'lumki asar mazmuni va shakldagi qonuniyatlar o'z navbatidagi mavzu va g'oyada ham ularning uzviy birligida ham namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asarlarning tasvir obyekti-hayot, tasvir vazifasi-tuyg'ular, tarbiyasi-quyilmadir. "Adabiyotning mavzui butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezilib anglaganlaridir. Bir tomchi suvdan dengizgacha, bir uchqundan buyuk yog'ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozuvchi uchun mavzu bo'larlik narsadir"[1, 15]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hayot va insonga taalluqli barcha hodisalar adabiyotining mavzusiga asosdir: shu asosning eng mayda zarrachasida ham inson bilishi lozim bo'lgan, uning yashashi uchun zarur hikmatlar sirlar, mu'jizalar mujassamdir. "Bu cheksiz, chegarasiz dunyodirki, unda har bir yozuvchi o'z kuzatish va tahlil qilishiga, hayotiy tajribasi qiziqishiga hayajon va kashfiga, bilish va salohiyatiga ko'ra hikmatni, mo'jizani o'zicha kashf etadi va ana shunga munasabatini, fikrini maqsadini ochib beradigan mavzuni tanlaydi, to'g'rirog'i unga ishiq qo'ydi. Niyat ham ishq ham yurakdan tug'iladi"[2, 27].

Shukur Xolmirzayev bugungi kun o'zbek adabiyotining o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ijodkoridir. Uning hikoyalaridagi qahramonlar ma'naviy olamining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Qahramonlarining xarakterlarida o'zbekona jihatlar umuminsoniylik darajasiga ko'tarilganligi bilan taxsinga loyiqdir. Chunki qahramonlarning ma'naviy olamiga alohida ma'no va joziba bag'ishlangan o'sha jihatlar, bugungi kunimiz, davrimiz xodisalari bilan, ya'ni zamondoshlarimizni turmush tarzi, quvonchu-tashvishlari, qolaversa, shakllanayotgan yangi hayot mezonlari bilan bevosita bog'liqdir. Shukur Xolmirzayev bu xislatlarni ustalik bilan o'z qahramonlari ma'naviy olamida tasvirlar ekan, albatta, bu yozuvchining mahorati, qolaversa XX asr o'zbek adabiyotining katta yutug'i hamdir.

**Adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A. Adabiyotga etibor – manaviyatga, kelajakka e'tibor.  
- T.: O'zbekiston, 2010.
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Adolatli jamiyat sari.  
- T.: O'zbekiston, 1998.
- 3.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. III jildlik. II jild:Hikoyalar. - T.: Sharq, 2006. - 448 b.
- 4.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. III jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2006.-512 b.
- 5.Hamidova M. Epik qahramon va uning tasviri // International Scientific Journal: Science and innovation, Series B. Volume 1 Issue 8, December 2022.-P. 1874-1879.
- 6.Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro'z, 2020.- 166 b.